

## M.BEXBUDIYNING JADIDCHILIK G'OYALARIDA IJTIMOIY PSIXOLOGIK JIXATLARI

*University of business and science*

*Pedagogika va psixologiya uchunchi bosqich talabasi*

***Gapirova Aziza Rixsiyevna***

*Ilmiy raxbar: Najmiddinova Muxayyoxon Shaxobiddin qizi*

*Elektron pochta: muhayyonajmiddinova72@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyatimizda ijtimoiylashuv jarayonida yuzaga keladigan shaxslararo munosabatlarda o'zbek xalqining jadidchilik g'oyalarining omma uchun ijtimoiy pedagogik va psixologik jixatlari nazariy jixatdan yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** SHaxs va jamiyat, jadidchilik harakati, munosabatlar erarxiyasi, odob va axloq, pedagogik takt.

**Аннотация:** В данной статье теоретически освещаются общественно-социальные педагогические и психологические аспекты джадидистских идей узбекского народа в межличностных отношениях, возникающих сегодня в процессе социализации в нашем обществе.

**Ключевые слова :** личность и общество, джадидистское движение, иерархия отношений, этикет и мораль, педагогический такт.

**Annotation:** this article covers the theoretical nature of the social pedagogic and psychological characteristics of the ideas of jadidism of the Uzbek people for the public in interpersonal relations that occur in the process of socialization in our society today.

**Keywords:** personality and society, temperance, relationship erarchy, etiquette and morality, pedagogic takt.

### KIRISH

Yurtimizda Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: *jadīd* — yangi) – XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat. Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g'oyalarini targ'ib qilishgan. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoil Gaspirali rahbarligida qrim tatarlar o'rtasida vujudga kelgan.

Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini *taraqqiyparvarlar*, keyinchalik *jadidlar* deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada

qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929-yillarga to'g'ri keladi.

Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o'rtnashib olishi kuzatiladi. U o'z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo'g'irchoqqa aylantirib, rus va g'arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko'zlaydi. Ayni chog'da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo'yniga xoch taqtirishgacha borildi. Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari-hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o'z vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi. Turkistonda jadidchi; il asoschilaridan biri bu Mahmudxo'ja Behbudiy edi.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida ruhoniylar oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li Turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo'ja Urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida (1780 – 1785) Samarqandga kelib qolgan.

U dastlab Samarqand madrasasida, so'ngroq Buxoroda yaxshigina tahsil ko'rgan. An'anaviy tahsil, so'ng esa o'z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali u shariatning yuksak maqomlari – qozi, mufti darajasigacha ko'tariladi. 1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. Behbudiy safar

chogʻida koʻp xodisalarga guvoh boʻldi. Xususan safarda u yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbusi va gʻayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvovi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi.

Behbudiy nazarida maʼrifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh boʻlmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u oʻz qabohatini ham, malohatini ham koʻra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyning teatr va matbuot sari boshladi. “Padarkush” shu tariqa maydonga keldi. Xullas, 1911-yilda yozilgan “Padarkush” dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Pyesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qoʻyish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. “Padarkush” – oʻzbek dramachiligining hamma yakdil eʼtirof etgan birinchi namunasi. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga koʻra yangi oʻzbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallif “Milliy fojia” atagan, hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda edi. U jaholat va nodonlik, oʻqimagan bolaning buzuq yoʻllarga kirib, oʻz otasini oʻldirgani haqida hikoya qiladi. Orqa-oldini oʻylamagan boyning Toshmurod ismli oʻgʻli bor. Oʻgʻli oʻqimagan. Boy atrofdagilarning gapiga kirmaydi, oʻgʻlini oʻqitmaydi, oqibatda u koʻcha bezorilariga qoʻshiladi. Restoranda maishatga puli yetmay, sheriklarini tunda uyiga boshlab keladi. Boy uygʻonib, ularni sezib qoladi. Lekin boyni oʻldirib, pulini olib ketadilar.

Xulosa: jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga yetadi. Agar butun millat shu ahvolga tushsachi?!.. “Padarkush” dastlab Samarqandda 1914-yilning 15-yanvarida sahnaga qoʻyildi. “Xalq nihoyat koʻp kelib, bilet yetmagani va joyni yoʻqligi uchun uch-toʻrt yuz kishi qaytib ketdi”, deb yozadi mahalliy matbuot. Toshkentda 1914-yilning 27-fevralida Avloniyning “Turon” truppsi Kolizey (hozirgi Savdo birjasi binosi)da oʻz faoliyatini mana shu “Padarkush” bilan boshlagan edi. Spektakl oldidan mashhur Munavvar qori teatrning jamiyat hayotidagi roli va oʻrni haqida nutq soʻzlaydi. Boy rolini Abdulla Avloniyning oʻzi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni “tarixiy kun” deb yozadi.

Xususan, yurtimizda har yili 31-avgust – Qatagʻon qurbonlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanadi. «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasi va jamoat fondi, Qatagʻon qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, uning Qoraqalpogʻiston Respublikasi va barcha viloyatlardagi hududiy boʻlimlari qatorida, endilikda Buxoro shahridagi tarixiy maskanda «Jadidchilik tarixi» muzeyi tashkil etilmoqda. Tarixning bu murakkab davriga oid ilmiy va badiiy asarlar bilan bir qatorda, «Tarixning nomaʼlum sahifalari», «Qatagʻon qurbonlari» nomli koʻp jildli xotira kitoblari nashr etilmoqda. Badiiy va hujjatli filmlar, koʻrsatuvlar tayyorlanib, namoyish qilinmoqda. Xalqaro konferensiyalar, koʻrgazmalar va davra suhbatlari, xotira kechalari, seminarlar

muntazam o'tkazilmoqda. Jafokash xalqimizga milliy o'zligini anglatish, istiqlolga erishish va davlatchilik yaratish yo'lida jon fido qilgan atoqli ma'rifatparvarlarimiz hukumatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanmoqda. Istiqlol istab, yurt qayg'usida qatag'on qurboni bo'lgan bobolarimizning aziz nomlari bilan ataladigan yodgorlik majmualari, ta'lim muassasalari, muzeylar, bog' va xiyobonlar barpo etilmoqda. Yuqoridagi fikrlardan shuni anglashimiz mumkinki, jamiyatdagi salbiy motivlar – ilmsizlik, betarbiyalik, o'zaro ziddiyatlar ta'siri ostida Behbudiy dunyoqarashida Vatanparvarlik motivi shakllangan. Albatta bu motivning shakllanishida ilm, tarbiya, o'z ustida ishlash, o'z manfaatidan vatan manfaatini ustun qo'yish, xatto jonini ham ayamaslik hislatlari yuqoriligi asos bo'lgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoshlar ishlari agentligi. "Jadidlar" to'plami. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
2. Karimov N. Mahmudxo'ja Behbudiy. Toshkent, 2010.
3. Jurayev, X. O. (2024). Shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida o'z men konsepsiyasining psixologik mexanizmlari. *Science and Education*, 5(9), 237-242.
4. Odilboyevich, J. X., & Yuldashboyevich, A. S. (2024). SHAXSNING PSIXOLOGIK SENZITIVLIK DARAJASI VA UNING PSIXOLOGIK TIPOLOGIYASI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 47(3), 145-148.
5. Haydarjon, J. (2022). SHAXS IJTIMOY XIMOYASIZLIGINIOGISHGAN XULQ ATVORGA TASIRINI IJTIMOY PSIXOANALITIK MECHANIZMLARI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYIY JURNALI, 2(1), 9-12.
6. Odilboyevich, J. X. (2024). O'SMIRLIK YOSH DAVRIDA SHAXSDA SUITSID XOLATLARINI PROFILAKTIKA QILISH YO'LARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 47(3), 111-114.
7. Karimova, N. (2020). INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AT THE UNIVERSITY: INNOVATIVE PORTFOLIO TECHNOLOGY. *Theoretical & Applied Science*, (10), 352-356.
8. Toxirovna, K. F. (2024). O'qituvchilik Faoliyatida Deontologik Tayyorgarlikni Oshirish. *Miasto Przyszłości*, 51, 146-148.